“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy aeroportlarda 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi faoliyati yuzasidan
UMUMIY HISOBOT

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari hamda hududiy aeroportlarida 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

I. Tashkilotning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani bo‘yicha:

Xususan, hisobot davrida “Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo‘yicha 14 ta bo‘lim tashkil etilgan bo‘lib, shundan bittasi markaziy apparatga tegishlidir. Markaziy apparat va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo‘yicha jami 17 ta alohida shtat birligi mavjud.

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoniga muvofiq “Uzbekistan Airports” AJ va barcha tizim tashkilotlarini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bunda asosiy e’tibor:

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha hamda tizim xodimlarda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan o‘quv seminarlar o‘tkazishga;

tizimda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga;

korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishdagi barcha ichki idoraviy hujjatlarni qonun hujjatlarga muvofiqligini ko‘rib chiqishga;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida rotatsiya qilinishi lozim bo‘lgan lavozimlarni ko‘rib chiqishga;

korrupsiyaga moyil bo‘lgan soha va yo‘nalishlarni tahlil qilishga, tahlil natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy xavf-xatarlarning mavjud bo‘lgan soha va yo‘nalishlarda inson omilini kamaytirishga;

davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilishga va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi.

Jumladan, Boshqaruv raisining tegishli buyrug‘iga asosan “Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlarida, xalqaro aeroportlarda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida hisobot davrida “Biz korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida **30** dan ortiq o‘quv-seminarlar o‘tkazildi.

Mazkur o‘quv seminarlarga prokuratura, IIB va bojxona mas’ul xodimlari taklif qilinib, ma’ruza bilan ishtirok etishdi.

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida xalqaro standartlar asosida ishlaydigan antikorrupsion tizim joriy qilish maqsadida yuqori reytingga ega xalqaro trening kompaniyalarini jalb qilgan holda o‘quv kurslarini tashkil qilish va treninglar o‘tkazish va har bir xodimni o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish masalalari va komplayens-nazorat bo‘yicha jami **168** nafar xodimning umumiy va maxsus o‘qishlarda malakasi oshirildi.

O‘tgan davr maboynida **ISO 37001:2016** (korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi) hamda **ISO 31000:2018** (xavflarni boshqarish bo‘yicha) xalqaro standartlarini joriy etish yuzasidan o‘quv kurslarida o‘qitish tashkil qilindi.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilish maqsadida AJning **20 dan** ortiq boshqaruv xodimlari **“CERT Academy” xalqaro trening tashkilotining** ISO 37001:2016 (korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi) hamda ISO 31000:2018 (xavflarni boshqarish bo‘yicha) xalqaro standartlari bo‘yicha o‘quv kurslarida malakasi oshirildi. Mazkur o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tomomlagan xodimlar “CERT Academy” trening tashkilotining xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lishdi.

II. Korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillar:

O‘tgan davr maboynida Boshqaruv raisining tegishli buyruqlariga asosan “Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi huquqiy bazasini mustahkamlash maqsadida **20** ga yaqin ichki me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi.

Ma’lumot uchun: “Uzbekistan Airports” AJ Boshqaruv raisining tegishli buyruqlariga asosan, **quyidagi**:

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” Siyosati;
- “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risida”gi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom;
- “Kontragentlarni tekshirishga oid” Yo‘riqnoma;

- “Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish” Uslubiyoti;

- “Etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha” Yo‘riqnoma;

- “Korrupsiyaviy xatti-harakatlari odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha” Reglament;

- “Uzbekistan Airports” AJga kadrlarni tanlash, saralash va ishga qabul qilish ishlarini tashkil etishda korrupsiyani oldini olish tartibi to‘g‘risida” Yo‘riqnoma;

- “Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy xalqaro aeroportlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha” Nizom;

- “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashish boshqa tarzda ko‘maklashgan “Uzbekistan Airports” AJ tizimidagi xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Nizom;

- “Uzbekistan Airports” AJ va tizim tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash” Uslubiyoti;

- “Korporativ odob-axloq kodeksi” va “Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida” yangi tahrirdagi Nizom;

- “Uzbekistan Airports” AJ va uning tashkilotlari, hududiy va tarkibiy bo‘linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish” Reglamenti va shu kabi bir qator ichki hujjatlar tasdiqlandi.

Bugungi kunda ushbu qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar amaliyotga joriy qilinib, qonun hujjatlariga muvofiq korrupsiyani oldini olish va unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda foydalanilmoqda.

Shuningdek, Jamiyatning rasmiy veb-sahifasida “korrupsiyaga qarshi” bo‘linmasi joriy qilinib, ushbu sahifada quyidagi ma’lumotlar, ya’ni:

- “Uzbekistan Airports” AJ Boshqaruv raisining korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha rasmiy bayonoti;

- Korrupsiyaga qarshi qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar;

- Aloqa kanallari;

- hisobotlar hamda olib borilayotgan amaliy tadbirlar va boshqa ma’lumotlar joylashtirilgan.


III. Xavf-xatarlarni baholash:

O‘tgan davr maboynida “Uzbekistan Airports” AJ va tizim tashkilotlarining faoliyatini (funksiya va yo‘nalishlarini) tahlil qilish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va darajasini baholash maqsadida AJ va tizim tashkilotlarining vazifa va

funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan o‘rganib chiqilib, “e-anticor.uz” platformasi orqali baholandi.


Unga ko‘ra, “Uzbekistan Airports” AJ va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi mavjud bo‘lgan **54** ta funksiya va yo‘nalishlardan **2** tasi **“o‘rta”**, **52** tasi **“past”**, deb baholandi.

2024-yilda **69** ta funksiya va yo‘nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi **“yuqori”**, **“o‘rta”** va **“past”** o‘lchovlarda baholangan bo‘lib, ushbu holatlarni quyidagi diagramma orqali tanishish mumkin.




KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonida “Uzbekistan Airports” AJ va tizim tashkilotlarining 69 ta funksiya va yo‘nalishlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari darajasi “e-anticor.uz” platformasi orqali baholanib, shundan **19** tasi **“yuqori”**, **35** tasi **“o‘rta”** va **15** tasi “past” deb, topilgan.



Xavf-xatarlar mavjud bo‘lgan ushbu funksiya va yo‘nalishlar qayta ko‘rib chiqilib, nazorat o‘rnatilib inson omilini kamaytirish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilganligi natijasida xavf-xatarlar darajasi 69 tadan **54 taga** kamaydi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo‘lgan 54 ta funksiya va yo‘nalishlardan **2 tasi** “o‘rta” **52 tasi** “past” deb, baholandi.



IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yaxshilash bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, “Uzbekistan Airports” AJning korrupsiyaga qarshi boshqarish tizimi faoliyati yuzasidan 2025-yilning o‘tgan davr maboynida **29** turdagi ma’lumot va hisobotlar “EAnticor.uz” elektron platformasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etildi.

Shuningdek bugungi kunda “Uzbekistan Airports” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yaxshilashxavf-xatarlarni oldini olish maqsadida soha va tarmoqlarda inson omili maksimal darajada kamaytirilib, bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda.

Masalan, xalqaro konsalting kompaniyalarni jalb qilgan holda o‘tkazilgan axborot texnologiyalari auditi natijasida “Uzbekistan Airports” AJ tizimida 2025-2030 yillar uchun raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqilib tasdiqlandi.

Mazkur raqamlashtirish strategiyasida Jamiyat va uning tarkibiga kiruvchi aeroportlarda raqamlashtirish darajasini oshirish, shu jumladan, operatsion faoliyatini

avtomatlashtirish, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish samaradorligi, xavfsizligi va qulayligini oshirish, shuningdek, havo transportini boshqarishning barcha jarayonlari va vositalarini optimallashtirish bo‘yicha 120 ta ustuvor va dolzarb loyihalar belgilab olindi.

Xususan, yoqilg‘i quyish majmuasi boshqaruvi axborot tizimi ishlab chiqilib test sinov tariqasida Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida ishga tushurildi. Joriy yil yakunigacha mazkur tizimni Jamiyat tarkibiga kiruvchi 4 ta aeroportda joriy etish rejalashtirilgan.

“Uzbekistan Airports” AJ yuk terminali faoliyatida omborlarni aqlli boshqarish “WMC” tizimi ishlab chiqildi va Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida yangi qurilgan UzCargo yuk terminali faoliyatida joriy etildi. Shuningdek, “Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarda xodimlarni boshqarish maqsadida “1C:ZUP” dasturiy moduli asosida xodimlarni boshqarish axborot tizimi sinov tariqasida ishga tushurildi.

Qolgan soha va tarmoqlarda ham korrupsiya va boshqa xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida, bosqichma-bosqich raqamlashtirish masalasi ko‘rilmoqda.

Bundan tashqari, ishchi va xodimlarning mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi bandlar (shartlar) kiritilib, yangi ishga qabul qilinayotgan *(2025-yil davomida **37 ta** xodim tanlov asosida ishga qabul qilingan)* xodimlar bilan ham **korrupsiyaga qarshi bandlar (shartlar)** mavjud bo‘lgan mehnat shartnomalari tuzilishi yo‘lga qo‘yildi.

Asosiy maqsad ishga qabul qilinayotgan xodimni ogohlikka chaqirish, ya’ni tayinlanayotgan lavozimidan korrupsiyani ko‘zlamaslik va korrupsiyaning har qanday turiga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirishdan iborat.


Shuningdek, Jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilgan bo‘lib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi tafsilotlar, raqamlar, hisobot va ma’lumotlar muntazam ravishda rasmiy veb-sayt, internet tarmog‘idagi boshqa sahifalarda hamda OAVda yoritib kelinmoqda.

Yuqoridagiladan kelib chiqib, “Uzbekistan Airports” AJ korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-yildagi ishlarining samaradorligi Respublika ekspertlar guruhi tomonidan reyting baholashdan o‘tkazildi.

Ushbu natijalar bilan quyidagi diagramma orqali tanishish mumkin.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA “UZBEKISTAN AIRPORTS” AJ FAOLIYATINING SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI

Korrupsiyaga qarshi kurashish agenligining davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi bo‘yicha e’lon qilingan reyting natijalariga ko‘ra, “Uzbekistan Airports” AJning 2024-yildagi faoliyat samaradorligi Respublika ekspertlar guruhi tomonidan 100 dan ortiq davlat tashkilotlari orasidan 92 ball *(2022-yilda – **23** ball, 2023-yilda – **84** ball)* bilan baholandi.



V. Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyani oldini olish bo‘yicha:

“Uzbekistan Airports” AJ va tizim tashkilotlarida “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar va mexanizmlarning amaliyotda ishlashi bilan bog‘liq holatlar, manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha cheklovlarga rioya etish masalalari tahlil qilindi.

Xususan, o‘tgan davr maboynida “Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarining jami **8184** nafar xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalari to‘ldirilgan. **Jumladan:**

- “Uzbekistan Airports” AJ – 311 ta;
- Z.M.Bobur nomidagi Andijon xalqaro aeroporti MCHJ – 125 ta;
- Buxoro xalqaro aeroporti MCHJ – 426 ta;
- "Qarshi xalqaro aeroporti" MCHJ – 309 ta;
- "Navoiy xalqaro aeroporti" MCHJ – 652 ta;
- "Namangan xalqaro aeroporti" MCHJ – 431 ta;
- "Nukus xalqaro aeroporti" MCHJ – 322 ta;
- "Samarqand xalqaro aeroporti" MCHJ – 304 ta;

- "I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti" MCHJ – 1997 ta;
- "Termiz xalqaro aeroporti" MCHJ – 354 ta;
- "Urganch xalqaro aeroporti" MCHJ – 493 ta;
- "Farg‘ona xalqaro aeroporti" MCHJ – 435 ta;
- "Uzbekistan Airports Cargo" MCHJ – 345 ta;
- "Uzbekistan Airports Handling" MCHJ – 1680 ta xodim tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalari to‘ldirildi va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida tegishli tushuntirish ishlari olib borildi.

To‘ldirilgan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini tahlil qilish jarayonida tegishli qonun hujjatlari buzilishi holatlari aniqlanmadi.

Bundan tashqari, “Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlari bilan kontragentlar o‘rtasida tuzilayotgan shartnomalar doimiy ravishda ko‘rib chiqilib, korrupsiyaga qarshi qoidalar (bandlar) kiritilib borilmoqda. Shu bilan birga, korxonalarning sanksiyaviy ro‘yxatlarda mavjudligi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazilib, tegishli xulosalar taqdim etib borilmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlarni o‘rganish bo‘yicha:

Тизимда коррупцияга қарши ишларни самарали ташкил этиш мақсадида коррупция ҳолатлари бўйича зудлик билан хабар беришга мўлжалланган алоқа каналлари *(elektron pochta: info@uzairports.com, ishonch telefoni: (55) 501-47-04, aloqa markazi: (55) 501-45-55)* ташкил этилган.

Bundan tashqari, barcha aeroportlarda **“QR-kod”**ni skanerlash orqali ishchi va xodimlar faoliyatiga baho berish va ushbu yuzasidan o‘z takliflarini qoldirish hamda aeroportlarda yaratilayotgan sharoitlar bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirishga mo‘ljallangan muloqot kanallari tashkil qilindi.

“Uzbekistan Airports”AJning aloqa kanallari, jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari orqali kelib tushadigan murojaatlarni qabul qilish uchun mas’ul xodim tayinlangan bo‘lib, tegishli murojaat kelib tushgan taqdirda mas’ul xodim tomonidan murojaat Reyestrga kiritilib ro‘yxatga olinadi.

2025-yil davomida aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir **21 ta** murojaat va takliflarlari kelib tushgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda tegishli qonun hujjatlari talablariga muvofiq o‘rganildi.

Shuningdek, Boshqaruv raisi tomonidan jismoniy shaxslar, tadbirkorlar va boshqa yuridik shaxslarning vakillari qabul qilinib, ularning bildirgan taklif va e’tirozlari asosida tegishli tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘tgan davr mobaynida jami **15 marotaba** o‘rganish va xizmat tekshiruvlari o‘tkazilib, bunda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan **6 nafar** ishchi-xodimlar tegishli javobgarlikka tortildi.

Bayon etilganlarga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga qarshi qaratilgan barcha vazifa va topshiriqlar qat’iy nazoratga olingan bo‘lib, tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

VII. Sertifikatlashtirish bo‘yicha

“Uzbekistan Airports” aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiqligi “CERT International” xalqaro sertifikatlashtirish (Slovakiya) tashkiloti tomonidan mustaqil auditdan o‘tkazildi va tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlari ijobiy baholandi.

Natijada “Uzbekistan Airports” AJ korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha **ISO 37001:2016 xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritdi**.

Mazkur ISO 37001:2016 xalqaro standarti tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashning samarali tizimini yaratishning xalqaro usullarini o‘zida jamlagan, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladigan, xalqaro ko‘rsatmalar va talablarni belgilovchi nufuzli xalqaro standart hisoblanadi.

Ushbu standart barcha xodimlarga korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me’yorlar asosida o‘z vazifalarini vijdonan bajarish, qonun hujjatlariga, halollik va shaffoflik tamoyillariga qat’iy rioya qilish mas’uliyatni yuklaydi.

ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lish davlat idoralari, xalqaro hamkorlar va aviatsiya sohasi tashkilotlarining ishonchini oshiradi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy takliflar quyidagilardan iborat.

“Uzbekistan Airports” AJ markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalari faoliyatining xavf-xatarga ega funksiyalari (yo‘nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlar va tartiblarni joriy etish, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi/yo‘l xaritasini ishlab chiqish va uning ijrosini nazorat qilish;

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari o‘z faoliyati va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarli yo‘nalishlarda umumiy nazorat muhitini va korrupsiyaga qarshi kurashish nazorat hamda tartib-taomillarni o‘z ichiga oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy etish;

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlarini yiliga kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha doimiy va tizimli o‘qitish;

“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlarining korrupsiyaga murosasiz munosabatini shakllantirish bo‘yicha va korrupsiyaga qarshi kurashish amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida xabardorligini oshirishga qaratilgan tematik audio va videoroliklar hamda boshqa axborot ma’lumotlaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini o‘tkazish;

Bugungi kunda, “Uzbekistan Airports” AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi qaratilgan barcha vazifa va topshiriqlar qat’iy nazoratga olingan bo‘lib, tizimni korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo‘yicha doimiy ravishda zarur chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi.